

## PILLACHILIKNI RIVOJLANTRISHDA INTENSIV TUTZORLANING O‘RNI

*S.N.Navruzov - Toshkent davlat agrar universiteti “Ipakchilik va tutchilik” kafedrasi professori, q.x.f.n.,*

*U.S.Xudayberdiyeva - Toshkent davlat agrar universiteti “Ipakchilik va tutchilik” kafedrasi dotsenti, q.x.f.f.d. (PhD),*

*M.G'.Norimboyeva - Toshkent davlat agrar universiteti talabasi,*

*H.B.Mirzaliyeva - Toshkent davlat agrar universiteti talabasi.*

### Аннотация

Maqolada pillachilikni rivojlantirishda uning ozuqa bazasi hisoblangan tutchilikning o‘rni, mavjud tutzorlarning ahvoli, ulardan olinayotgan barg hosilini kamligi, uni ko‘tarish uchun bajarilishi kerak bo‘lgan tadbirlar, shuningdek pillachilikni kelgusida rivojlantirish uchun 35-40 tonnagacha bir gektardan barg hosili beradigan intensiv tutzorlarni tashkil etish, bunda Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti olimlarining ishlanmalari bilan birga Vetnam davlati tajribalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Pillachilik, intensiv tutzor, qayta ishlash sanoat korxonalari, mavsum, eksportbop, ijtimoiy, iqtisodiy, kasanachilik, navdor ko‘chat, duragay nihol, tutchilik, barg hosili, rentabellik, pillakor, ipak qurti, ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti, texnologiya, ekish sxemasi, yer, suv, buta tutzor, o‘g‘it, agrotexnika.

### Аннотация

В статье освещаются вопросы тутоводство единственная кармовая база шелководства, сегодняшнее состояние кормовой базы, о ее неудовлетворительности по урожайности листа с каждого гектара пути его увелечения, а также о роле интенсивных плантаций для дальнейшего развития шелководства, имеющиеся научные разработки в этом плане и опыти Вьетнамских шелководов обеспечивающие получить урожай листа с каждого гектара по 35-40 тонн, а также о схемах посадки кустовых плантаций.

**Ключевые слова.** Шелководства, интенсивные тутовые плантации, перерабатывающий, промышленность, сезон, экспортоориентированная, социал, экономически, сортовые саженцы, гибридная сеянца, туководство, урожай листа, рентабельность, шелковод, тутовый шелкопряд, НИИ шелководства, технология, схема посадки, кустовые плантации, удобрение, агротехника.

Respublikamiz xalq xo‘jaligida, ayniqsa agrosanoat majmuasida pillachilik tarmog‘ining o‘z o‘rni bor. Bu soha qayta ishlash sanoat korxonalarini qimmatli xom-

ashyo bilan ta'minlash bilan birga, yuqori darajada eksportbop mahsulot bo'lganligi, pilla yetishtirish mavsumida esa yuz minglab qishloq aholisini mavsumiy ish bilan band bo'lishiligi, bu tarmoqning yuqori iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga aynan pillachilik orqali kasanachilikni qishloq tumanlarida keng joriy etish imkoniyati mavjud.

Pillachilikni barqaror rivojlantirishda uning yagona ozuqa bazasi hisoblangan tutchilikni rivojlantirish asosiy poydevor hisoblanadi. Bunda navdor tutlar ulushini ko'paytirish va bir gektar tutzordan olinadigan barg hosilini miqdori va sifat jihatidan oshirish esa pillakorlar manfaatdorligini hamda soha rentabelligini ta'minlaydi.

Bu borada respublikamiz vilotlarida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan mavjud tutzorlarni asrash, xatosini to'ldirish, ularning hosildorligini oshirish va yangilarini barpo etish shular sirasiga kiradi.

Lekin amalga oshirilayotgan yuqoridagi tadbirlarga qaramasdan joylardagi tut va tutzorlarning barg hosili ancha kamligi va sifati esa pastligicha qolmoqda. Natijada bu yetishtirilayotgan pilla hosili tannarxining qimmatlashishiga va soha rentabelligining pastligiga olib kelmoqda.

O'zbekipaksanoat uyushmasi va ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti olimlarining ma'lumotlariga qaraganda, respublikamizda mavjud tutzorlardan olinayotgan barg hosili ko'pi bilan 6-8 tonnani tashkil qilmoqda, bu degani bir gektardan oingan barg bilan 5-7 quti ipak qurtini boqish mumkin xolos. Holbuki shu tutzorlardan ham agrotexniksini to'g'ri tashkil etib kamida 18-20 tonna barg hosili oish mumkin, ya'ni uch baravarga ko'p.

Shuningdek bu borada horij tajribasini respublikamizda joriy etish ham pillachilikni rivojlantirishda sezilarli siljishishga olib kelishi mumkin. Bir guruh ishlab chiqarish vakillari va ipakchilik sohasi olimlarining Vetnam davlatiga qilgan safarlari shundan dalolat beradiki, tut plantatsiyalarini pilla yetishtiruvchi oilalarga doimiy ravishda bo'lib berilganligi ulardan yuqori sifatli mo'l barg hosili olishni kafolatlaydi.

Bizda ham O'zbekiston Respublikasi prezidentining pillachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish to'g'risidagi qarorlarida oziqa bazasini rivojlantirish, navdor tutlarni ko'paytirish va ekish, tutzorlarni pillakorlarga bo'lib berish hamda tutzorlar chekkasida mahalliy qurilish materiallaridan qurtxonalar qurish topshiriqlari berilgan. Lekin boshlangan ishlar to'liq oxiriga yetkazilmagan. Oqibatda qarovsiz qolgan tutzorlardan olinayotgan barg hosili kam va sifati past. Bularning barchasi albatda soha rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagilardan hulosa chiqargan holda, barcha viloyat, tuman va hududlarda mavjud tut va tutzorlarni xatlovdan o'tkazib, ahvolini o'rganish va tegishli tadbirlarni amalga oshirish orqali ularning barg hosildorligini keskin oshirish, parvarishlanayotgan ipak qurti hajmlaridan kelib chiqib yangi intensiv tutzorlarni tashkil etib borish va bunda asosiy e'tiborni navdor tutlarga qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.



Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti olimlarining bu borada bir necha xil ishlanmalari mavjudki, ularni joylardagi sharoitdan kelib chiqqan holda bemaolol qo'llash imkoniyatlari bor. Masalan ular taklif etayotgan yangi intensiv texnologiya asosida 1,4 x 0,5 sxemada ekilgan ozuqa tutzorda 14285 tup ko'chat bo'ladi, uch yildan so'ng har bir tupdan 2,5 kg dan barg hosili olinsa 35712 kg, agar 3,0 kg dan olinsa bir gektar maydondan 42855 kg barg hosili olish mumkin va bir qutiga bir tonnadan barg sarflanganda ham, kamida 40 quti ipak qurtini parvarishlash mumkinligi keltiriladi. Bu albatda eski keng qatorli tutzorlar barg hosilidan 7-8 martaga ko'p demakdir, albatda samaradorlik ham mos ravishda ko'payadi.

Xuddi shuningdek intensiv tutzorlar tashkil etishda Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti olimlari X. Ubayxo'jaev B.Usmonovlar 0,9 x 0,9 m sxemadagi tutzorning o'tgan asrning 90 yillarida tavsiya etganlar. Buni albatda har bir viloyat o'zining tuproq va suv sharoitlaridan kelib chiqqan holda qo'llash tavsiya etiladi. Bunday tutzorlarni tashkil etishda duragay nihollar yoki payvand qilingan navli ko'chatlardan foydalanish mumkin. Bu tadbirlar bahorda shira harakati boshlangunga qadar yoki kuzda xazonrezgidan keyin amalga oshiriladi. Tayyorlanadigan yerlar tekis, yer osti suvlari 1,5 metrdan past, 30-35 sm chuqurlikda haydalgan hamda suvga qulay bo'lishligi maqsadga muvofiq, sho'rxok yerlarni sho'ri esa yuviladi. Intensiv tutzorlarga kuzda ekilgan nihollarning 4-5 sm ildiz bo'g'zi, bahorda ekilganda esa 2-3 sm ildiz bo'g'zi tuproq ostida bo'lishi talab etiladi.

Ekilgan nihollarni yuqori ko'karuvchanligini ta'minlash uchun ular tezda sug'orilishi kerak. Bir yil davomida nihollar erkin o'stiriladi, ikkinchi yili esa bahorda shira harakati boshlangach yer sathidan 10sm balandlikda kesiladi. Ekilgan ko'chatlarni tez-tez sug'orib turish kerak, har bir sug'orishdan keyin egatlar 10-15 sm chuqurlikda kultivatsiya qilinishi lozim. O'sish davrida buta tutzorlarning har bir gektariga sof holda 180 kg azotli, 90 kg fosforli va 45 kg kaliyli o'g'itlar solinadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, pillachilikni barqaror rivojlantirish va uning yuqori rentabelligini ta'minlashda ipak qurti ozuqa bazasi hisoblangan tutchilikning o'rni beqiyos.

Shuningdek mavjud tutzorlarga kerakli agrotexnik ishlovni tashkil etib, ularni barg hosilini 2,5-3 baravarga va intensiv tutzorlar tashkil etib, har gektaridan 35-40 tonnagacha barg hosilini olishni olimlarimiz allaqachon isbotlab ishlab chiqarishga tavsiya etganlar. Buni faqat joylarda to'g'ri amalga oshirish orqali pillachilikni yanada rivojlantirish mumkin bo'lur edi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kuchkarov U. – Novaya perspektivnaya roditelskaya para linii Murasaki Vase I<sub>2</sub>N19 dlya ispolzovaniya, v seleksii i semenovodstve shelkovisy. Nauchnye osnovy razvitiya shelkovodstva v Uzbekistane. Tashkent-1989.

2. Qo‘chqorov O‘., Xolmatov D. – Yangi serxosil duragay tutlarni ishlab chiqarishga joriy qilish to‘g‘risida Tavsiyanoma. Toshkent-2001.
3. Pulatov A., Gatin F.G., Kuchkarov U. – Vnedreniya sortovoy i gibridnoy shelkovisы v proizvodstvo. Dostijeniya N. i T. №3, 1991.

